

Raxmatulloyev Umid Ashrafovich
Buxoro davlat universiteti
tarix va yuridik fakulteti o'qituvchisi
u.a.raxmatulloyev@buxdu.uz

BUXORO VILOYATIDA KUTUBXONALAR FAOLIYATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1990-yillarda Buxoro viloyatidagi kutubxonalar faoliyatiga to'xtalinadi. Viloyatdagi kutubxonalarning mustaqillik yillaridagi faoliyatidagi o'zgarishlari masalalari bayon qilinib, yutuq va kamchiliklar muhokama qilinadi. Kutubxonalar faoliyatining o'zgarishi, kitob fondlarining yangilanib borishi, kutubxonalar joylashuvi, ularning moddiy – texnik holati, shu jumladan kamchiliklar viloyat miqyosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro, kutubxona, kitob fondi, ko'zi ojizlar kutubxonasi, bolalar kutubxonasi, yangi adabiyotlar, kutubxonachi, kartotekalar, katalog, tahlil, o'sish, kamayish.

КОНКРЕТНЫЕ АСПЕКТЫ БИБЛИОТЕЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация. В данной статье рассматривается деятельность библиотек Бухарской области в 1990-е годы. Описываются вопросы изменений в деятельности библиотек региона в годы независимости, обсуждаются достижения и недостатки. На региональном уровне анализируются изменения в деятельности библиотек, пополнение книжных фондов, местоположение библиотек, их материально-техническое состояние, включая недостатки.

Ключевые слова: Бухара, библиотека, книжный фонд, библиотека для слепых, детская библиотека, новая литература, библиотекарь, картотеки, каталог, анализ, рост, сокращение.

SPECIFIC ASPECTS OF LIBRARY ACTIVITIES IN THE BUKHARA REGION

Annotation. This article focuses on the activities of libraries in the Bukhara region in the 1990s. The issues of changes in the activities of libraries in the region during the years of independence are described, and achievements and shortcomings are discussed. Changes in the activities of libraries, the renewal of book funds, the location of libraries, their material and technical condition, including shortcomings, are analyzed at the regional level.

Keywords: Bukhara, library, book fund, library for the blind, children's library, new literature, librarian, card files, catalog, analysis, growth, decrease.

Kirish. Buxoro buyuk va qadimiy shahar bo'lib, uch ming yillik tarixi davomida ilm – fan va madaniyatga homiy shahar sifatida o'z bag'rida minglab ulug' ulamo va allomalarni yetishtirib chiqargan. Nafaqat dunyoviy, balki din ilmi, xususan islom dini rivojida ham bu yurtidan chiqqan ulug' allomalar Buxoroni "Islom dinining gumbazi" degan ulug' nomga sazovor bo'lishida o'zlarining mislsiz xizmatlarini qo'shganlar. Albatta bu yutuqlar o'z-o'zidan amalga oshmagan, bunda shu zaminda yaratilgan qulay ilmiy muhit, ilm dargohlari va ustozlarining hissasi kattadir. Ushbu ilm yo'lini yoritishda avvalo kitob va kutubxonalarning hissasi beqiyosdir. Qaysi yurtda kutubxona ko'p, kitob o'qishga, ilm olishga yaxshi sharoit yaratilgan bo'lsa o'sha yerda xalq taraqqiy etadi va farovon yashaydi. Buxoroda ham nafaqat o'tgan asrlarda balki, mustaqillik yillarida o'nlab kutubxonalar faoliyat yurutib keldi. Ularda mavjud o'n minlab kitob fondlaridan ilm ahlari va kitobxonlar muntazam foydalanib kelishdi. Bu kabi ilm dargohlarining faoliyati bugungi kunda ham davom etib, rivojlanob bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur maqolani yozishda O'zbekiston milliy arxivi, ilmiy adabiyotlar, A. Umarovning nomzodlik dissertatsiyasi va viloyat vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilingan materiallardan foydalanildi. Kutubxonalar faoliyatini yoritishda yuqoridagi arxiv hujjatlari va boshqa ilmiy materiallar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Obyektivlik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, munozara, umumlashtirish, yakuniy xulosa, arxivshunoslik, tarixiy o'lkashunoslik va O'zbekiston tarixi fanlari natijalaridan foydalanildi.

Muhokama va natijalar. Buxorodagi markaziy kutubxona tizimiga XX asrning 20 – yillarida asos solingan bo'lib, bu kutubxona Abu Ali Ibn Sino nomidagi viloyat markaz kutubxonasidir. Ushbu kutubxona dastlab shahar kutubxonasi nomi bilan ataladi. 1921 – yil 30 – iyunda Buxoro shahrida shahar kutubxonasi o'z eshiklarini ochadi. Uning ochilish tashabbuskori BXSr Maorif noziri Musojon Saidjonov bo'lgan. Kutubxona ochilgan kuni unda 1187 nusxa kitob va 350 nafar kitobxon mavjud bo'lgan. 1938-yildan kutubxona shahar kutubxonasidan viloyat kutubxonasiga aylantirilib, Ibn Sino nomidagi davlat kutubxonasi deb atala boshlangan. 1938 – yilning o'zida kutubxona fondi 78 ming so'mlik adabiyotlar bilan to'ldirilib, rus, o'zbek, tojik, yahudiy hamda tatar tillaridagi 71 000 jilddan iborat bo'ladi. Ko'plab tillarda 180 nomdagi gazeta va 250 nomdagi jurnalga obuna bo'linadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi 1950 – 1960 – yillarda kutubxona madaniy hayot markaziga aylanadi. Bu yillarda shahardagi korxonalar, o'quv muassasalarida doimiy va vaqtinchalik ko'chma kutubxonalar tashkil etiladi. Kitobxonlarning turli-tuman talab va ehtiyojlari qondiriladi. Kutubxonachilar o'zlarining mavjud kitob fondini faol targ'ib qilib, kitob ko'rgazmalari, munozaralar, kitobxonlar konferensiyalari, adabiy kechalar va ma'ruzalar tashkil etish orqali kitobxonlarga adabiyot tanlashda yordam beradilar. 1971-yil kutubxona tarixida muhim voqea bo'lgan. Shu yili 500 ming jild kitobga mo'ljallangan yangi namunaviy bino kitobxonlar uchun o'z eshiklarini ochadi[1]. Mazkur viloyat markaziy kutubxonasi shu tariqa rivojlanib boradi. Kitob fondlarining yillar davomida ko'payib borishi natijasida yuzaga kelgan binoga bo'lgan ehtiyoj 1971 – yilda qondirilib, yangi bino kutubxona ixtiyoriga topshiriladi. Kutubxonaga yangi binoning topshirilishi va kitob fondining ortib borishi albatta viloyatda kitobga bo'lgan talab va kitobxonlar sonining ortib borishi natijasi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirgi zamonaviy davrda kutubxonalar quyidagi turlarga bo'linadi: Universal (umumiy) kutubxona – Zahiraga ega bo'lgan, ko'p ming kishilik aholiga xizmat ko'rsata oladigan kutubxona; Ilmiy, taxnikaviy va maxsus – ma'lum sohaga yo'naltirilgan va cheklangan doiradagi kitobxonga xizmat ko'rsata oladigan (ilmiy institutlar, laboratoriyalar, davlat va jamoat tashkilotlari tarkibidagi) kutubxonalar; O'quv kutubxonalari – o'quv muassasalariga (oliy va o'rta maxsus) xizmat qiluvchi kutubxonalar kabi turlari bo'linadi. Bundan tashqari kutubxonalar kitob fondi bo'yicha, yo'nalishi (mavzu), haq to'lash bo'yicha (pulli va tekin), ochiq (ommaga) va yopiq (faqat bir toifa odamlarga xizmat qiluvchi) va ichki xizmati bo'yicha kabi ishlash tarkibi va xizmat ko'rsatish mezonlari asosidagi sinflarga ham bo'linadi[2]. Ammo viloyatda keng tarqalgan kutubxonalar ommaviy, oliy va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari kutubxonalari bo'lib, pulli kutubxonalar haqida adabiyotlarda ma'lumotlar uchramaydi.

Fond kattaligiga qarab kutubxonalar quyidagi turlarga bo'linadi[2]

Guruh	Kitoblar soni	Mo'ljallangan
I (eng kattalari)	5 mlndan ortiq	Respublika ahamiyatidagi universal (ommaviy) ilmiy, mahsus kutubxonalar
II (kattalari)	1 – 5 mln	Respublika, viloyat, tuman kutubxonalari
III (o'rtachalari)	200 mingdan 1mln gacha	Shahar, viloyat markaziy kutubxonalari
IV (katta emaslari)	50 – 200 ming	Umumshahar (kichik shaharda), turar joy tumanida, qishloqda tuman va jamoat markazida
V (kichiklari)	5 – 50 ming	Turar joy tumanida, xizmat ko'rsatish bo'limida (kichik tuman filial

		kutubxonalari) qishloqda va qishloq markazlarida).
--	--	--

Viloyat kutubxonalarining 1993 – yildagi asosiy tarkibiy qismi [3]

Bilimlar sohasi	1992-yil kitob fondi	% da	1993-yil kitob fondi	% da
Ommaviy siyosiy adabiyotlar	636524	13.9	616949	13.5
Tabiiy ilmiy adabiyotlar	308881	6.7	306839	6.7
Texnika va qishloq xo'jaligi adabiyotlari	395318	8.6	38888	8.5
San'at va sport adabiyotlari	200536	4.5	205089	4.5
Badiiy va bolalar adabiyotlari	3039668	66.3	3047410	66.8
O'zbek tilidagi adabiyotlar	2430432	53.0	2433016	53.3
Rus tilidagi adabiyotlar	2133518	46.5	2103935	46.1

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak respublika kutubxonalari fondining katta qismini badiiy va bolalar adabiyotlari, o'zbek, rus tilidagi adabiyotlar tashkil etgan. Mazkur bilim sohasiga tegishli adabiyotlar 1993 – yilda mos ravishda 66.8 %, 53.3 % va 46.1 % ga o'sishni qayd etgan.

1993 – yilda Viloyat kutubxonalari tarmog'i [4]

№	Shahar va tumanlar	Kutub-xonalar soni	Viloyat k	Markaziy k	Bolalar k	BK filiallari	Mus-taqil	Avto k	Ko'chma k	Ko'zi o'jizlar k
1	Olot tumani	37	–	1	1	35	–	1	45	–
2	Buxoro tumani	47	–	1	1	45	–	1	54	–
3	Vobkent tumani	45	–	1	2	44	–	1	72	1
4	G'ijduvon tumani	54	–	1	2	51	–	1	129	–
5	Jondor tumani	49	–	1	1	47	–	1	121	–
6	Kogon tumani	28	–	1	1	26	–	1	52	–
7	Qorako'l tumani	55	–	1	1	52	–	1	55	–
8	Qorovulbozor tumani	2	–	–	–	–	2	–	–	–
9	Peshko' tumani	34	–	1	1	32	–	1	81	–
10	Romitan tumani	41	–	1	1	37	–	1	91	–
11	Shofirkon tumani	61	–	1	1	58	–	1	113	1
12	Buxoro shahri	26	2	1	9	13	–	1	81	1
13	G'ijduvon shahri	4	–	–	–	–	3	–	–	1
14	Kogon shahri	11	–	1	5	5	–	–	24	–
Viloyat bo'yicha		494	2	12	29	442	5	11	918	4

Viloyat kutubxonalari 1994 – yilning 1 – yanvar holatiga ko'ra 4565175 nusxa kitob bo'lgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19575 taga kam bo'lgan. 1994 – yil davomida viloyat kutubxonalari 147356 nusxa adabiyotga ko'paygan bo'lib, shularning 95679 tasi o'zbek tilida bo'lgan. Yil davomida 169139 ta kitob mazmunan eskirganligi sababli muomaladan chiqarilgan, shulardan 93740 tasi yoki 55,4 % qismi o'zbek tilida bo'lgan [5]. Mustaqillikning dastlabki yillarida sovetcha mafkurada yozilgan adabiyotlar va gazatalarning mazmunan eskirganligi sababi bilan kutubxonalar fondidan chiqarilgan. Ushbu omillar natijasida kutubxonalar fondi bir necha o'n minglab kitobga kamayib ketgan.

Viloyatdagi kutubxonalarda 1994 – yil holatiga ko‘ra ko‘plab o‘z yechimini topmagan muammolar mavjud bo‘lgan. Unga ko‘ra Ibn Sino nomidagi viloyat kutubxonasidagi ahvol talab darajasida bo‘lmagan. Kitoblar ro‘yxatini shakllantirishda ya‘ni kartotekalar tayyorlashda noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan, ba‘zan kartotekada nomi keltirilgan kitobning o‘zini kutubxonachilar topib bera olmagan yoki u kitobning o‘zi kutubxoanada mavjud bo‘lmagan. Ko‘p hollarda kutubxonachilarning bilimdarajasi yetarli bo‘lmaganligi yoki pala – partish joylashgan kitoblarni topishda kitob so‘ragan kitobxonning o‘ziga kirib o‘zingiz topib chiqing degan munosabatda bo‘lingan. Kitoblar shifri to‘g‘ri katalog tarzida tuzilmagan, bu esa nafaqat kitobxon balki, kutubxonachining o‘ziga ham qiyinchiliklar tug‘dirgan. Eng achinarlisi o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan mustaqil O‘zbekiston Respublikasining o‘zbek tili davlat tili bo‘la turib, kitoblarning katta qismi rus tilida yoki rus adabiyotlaridan tashkil topgan bo‘lgan. Buxoro davlat universiteti kutubxonasida esa kitoblarni kataloglashtirish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, xodim so‘ralgan kitobni tez topib belgan. Ammo ushbu kutubxona ham kamchiliklardan holi bo‘lmagan. Kutubxona fondidagi kitoblar fakultetlar soniga qarab 4 ta binoga tarqatilib yuborilgan, o‘zbekcha kitoblar katalogi esa hatto bosh korpusda ham mavjud bo‘lmagan. Tarix va biologiya fakultetlarida kartotekalar to‘liq rus tilida bo‘lgan. A.Firdavsiy nomidagi Buxoro shahar markaziy kutubxonasida ham xuddi shunday muammolar mavjud bo‘lgan. Kutubxonalarda kitoblarni tiliga va alfavit tartibiga qarab kataloglarga bo‘lish ishlari tugallanmagan [6]. Kutubxonalar ishini tashkil etish ancha murakkab jarayon bo‘lib, kitob fondlarini sohalar, tillar va yo‘nalishlarga qarab guruhlariga bo‘lish uzoq muddatni talab qiladi. Bundan tashqari har yilda kutubxona fondiga kelib tushadigan minglab kitob nusxalarini belgilangan sohalar bo‘yicha joylashtirish bir ikki kunda hal bo‘lmasligi tabiiy albatta. Shu sababdan viloyat kutubxonalarida mavjud bo‘lgan bu kabi texnik muammolarni bo‘rttirib ko‘rsatishdan yiroqmiz.

1995 – yilning yanvar holatida viloyat kutubxonalari 4579408 nusxa kitob fondiga ega edi, bu 1993 – yilga nisbatan 14233 taga ko‘p degani edi. Shu yilda viloyat kutubxonalari yangi chiqarilgan adabiyotlar hisobiga 56518 taga ko‘payadi. Shu bilan birga kutubxonalardan 42285 nusxa kitoblar ma‘nan eskirganligi tufayli chiqariladi, ulardan 20499 tasi (48,5 %) o‘zbek tilida bo‘lgan [7].

Viloyatning G‘ijduvon tumanida 1997 – yilda kutubxonalarning ahvoli qoniqarli darajada bo‘lmagan. Shu yilgi ma‘lumotga ko‘ra tumanda 52 ta tarmoq va 2 ta bolalar kutubxonasi faoliyat ko‘rsatgan. Bolalar kutubxonasi tor va ta‘mirlalab ahvolda bo‘lgan. Tumandagi 2 – bolalar kutubxonasining shu yildagi mudirasi Zulayxo Rustamova kutubxonada 10.5 ming nusxa kitob borligini aytgan. Ammo kutubxona binosi ancha eski bo‘lgan. Kitobxonlarga o‘quv xonasi bo‘lmagan, icharaga olingan 2 ta xonani esa tuman elektr tarmoqlari idorasi tezda bo‘shatishni talab qilib kelishgan. O‘z binosiga ega bo‘lmagan qishloq kutubxonalarga esa vaqtinchalik joy bergan tashkilotlar doimiy ijara haqi so‘rab kelishgan. Gajdumak qishlog‘ida joylashgan 5 – tarmoq kutubxonasi tuman pochta aloqa bo‘limi ixtiyorida bo‘lgan. Aloqa bo‘limi esa kutubxonadan har oy 2 ming so‘m miqdorida ijara haqi talab qilib kelgan. Tumandagi 12 ta kutubxona dala shiyponlarida joylashgan. Ular aholi yashaydigan joylardan uzoqda bo‘lganligi uchun u yerga deyarli hech kim bormagan. Tuman markazlashgan kutubxona direktori Mavjuda Mahmudovanning aytishicha 1996 – yilda rejalashtirilgan 180 ming o‘rniga 110 ming so‘mlik adabiyotlar olingan. Qolgan 70 ming so‘mlik budjet mablag‘i hisobidan esa 1997 – yilda adabiyotlar olingan. Yuqoridagi muammolar bilan bir qatorda tumanda samarali faoliyat yuritga kutubxonalar ham bo‘lgan. Jumladan, S Jabborov nomli “Guliston”, S. Ayniy nomli jamoa xo‘jaliklari yordami bilan markazlashgan tizimning tarmoqlari uchun keng va shinam xonalar ajratib berilgan. Tumandagi Ibn Sino nomli jamoa xo‘jaligining 37 – tarmoq kutubxonasi o‘quv xonasida 250 nafar doimiy kitobxon mavjud bo‘lgan. Xuddi shu xo‘jalikning 5 – brigada dala shiyponida joylashgan kutubxonada 10778 nusxa kitob mavjud bo‘lgan [8]. Kutubxonalar faoliyatidagi joy bilan bog‘liq muammolar yosh va mustaqil davlatdagi iqtisodiy muammolar bilan bo‘g‘liq desak to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki endigina oyoqqa turayotgan yosh davlat uchun barcha sohalarini birdek rivojlantirish, ularni joy bilan ta‘minlash muammosini hal qilish imkonsiz edi. Shu sababdan bunday uzulishlarni kutubxonalar faoliyati bilan ham uchratish mumkin edi.

Kutubxonalar faoliyati uchun hukumat tomonidan 1990 – yillarda ajratilgan mablag‘larni iqtisodiy jihatdan qayta tahlil qilishni lozim deb o‘ylaymiz. Chunki bu sohaning o‘z holiga tashlab qo‘yilishi mumkin emas edi. Ammo bu soha turg‘unligicha qolmasdan doim yangi ilmiy adabiyotlar hisobiga to‘ldirib borilgan.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilish mumkinki, viloyatda kutubxona tizimi doim xalq xizmatida bo‘lgan. 1990 – yillarning boshlarida turli mazmundagi eskirgan adabiyotlar fondlardan chiqarilgan bo‘lishiga qaramasdan kitob fondlari imkon boricha yangi chiqarilgan nashrlar hisobiga to‘ldirib borilgan. Viloyatda faoliyat yuritgan o‘nlab ziyo maskanlari minglab kitobxonlarga qo‘llaridan kelganicha ilmiy yordam berib kelishgan. Bu esa Buxoroda ilmiy muhit, kitobxonlik madaniyatining rivojlanib borganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бухарская областная универсальная научная библиотека имени Абу Али Ибн Сино 1921 – 2001. Путеводитель. Бухара. 2001. С. 5, 6,7.
2. Umarov A. Ommaviy kutubxonalarning arxitekturaviy yechimlarini takomillashtirish (Toshkent shahri misolida). Arxitektura nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent. 2007. B.45.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond M – 7. 1 – ro‘yxat. 74 – Yig‘ma jild. B.8.
4. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond M – 7. 1 – ro‘yxat. 74 – Yig‘ma jild. B.2.
5. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond M – 7. 1 – ro‘yxat. 74 – Yig‘ma jild. B.3.
6. Алиев С. Кутубхоналар ишини ким назорат қилади // Бухоро ҳақиқати. 1994. 29 - июнь.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond M – 7. ro‘yxat – 1. Yig‘ma jild – 134. B.3.
8. Рўзиев Р. Китобхон ҳақида ким қайғуради? // Бухоро ҳақиқати. 1997. 22 – февраль.